

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

*70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligining  
malaka talablari*

**Chirchiq – 2023**

**ЎЗР ОУМТВ**  
Буйруқ № 367  
“ 21 ” 08 2023

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> magistratura mutaxassisligi ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70310901 – <i>Psixologiya (sport)</i> magistratura mutaxassisligi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

## **1. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi**

**70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalar;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari.

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**70310901 – Psixologiya (sport) “Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar”** ta'lim sohasiga mansub mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot-institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlarida faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid psixologik muammolarni yechishga qaratilgan kompleks masalalarni hal etish, faoliyati yo'nalishida, xulq-atvor va muomalada, shaxslararo munosabatlar mexanizmlarini, jamoasida shakllanish qonuniyatlarini, insonlar aqliy salohiyati va iqtidori darajalarini bashoratlashga, kasbiy ko'nikmaga, boshqarish qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 70310901 – Psixologiya (sport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

– Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlarini;

- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiyot sohasidagi huquq-targ'ibot va qonuniylikni ta'minlash jarayonlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlarida boshqaruv jarayonlari;
- ta'lim va fan tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiyatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xizmat ko'rsatish birlashmalarida psixologik faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- ta'lim va fan, sport sohaslarida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari.

**1.2.3. 70310901 – Psixologiya (sport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- sport faoliyatida (sport psixologi);
- pedagogik faoliyatida (umumta'lim va professional ta'lim tizimi muassasalarida psixologik-pedagogik tashxis markaz vakili amaliyotchi psixolog);
- ilmiy-tadqiqot faoliyatida;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida;
- sportchilarni rehabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirish markazi faoliyatida;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;
- jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish markazlari psixologik xizmat faoliyatida;
- tashkiliy-boshqaruv.

**1.2.4. 70310901 – Psixologiya (sport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari:**

70310901 – Psixologiya (sport) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy-tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va eksplutatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarni konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-uslubiy majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, yuqori malakali pedagog mutaxassisلامي tayyorlash;

- jismoniy tarbiya va sportga oid psixologik ilmiy tekshirishlar bo'yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-psixologik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

- aprobatsiyadan o'tgan usullarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning psixologik jihatdan samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish;

- matematik-statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalana olish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

## **2. 70310901 – Psixologiya (sport) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga oia bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli magistratura mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassislikka muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi g'oyalarning asosiy oqimlari evolyutsiyasining xususiyatlari va tendensiyalari, milliy jismoniy tarbiya va sport sohasi hamda undagi zamonaviy yo'nalishlar, jismoniy tarbiya va sport salohiyatidan samarali foydalanish muammolari yuzasidan nazariy xulosalar chiqarishi;

- statistika amaliyotida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ko'rsatkichlaridan foydalanishni;

- jahon sporti va xalqaro sport munosabatlari sohasida ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholashni bilishi;

- rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishni;

- jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarda psixologik maslahatlar berish mexanizmini tushunishni;

- sport-sog'lomlashtirish tizimidagi institutlar faoliyati va uni tashkillashtirilishini ta'minlashi lozim.

- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan psixologik nazorat va korreksiyalash, inson psixologik holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish qobiliyati;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qo'llay olish;

- quyi tarkibiy bo'limlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini ta'minlay olish;

- innovatsion g'oyalardan foydalanishga tayyor bo'lish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Mutaxassislik bo'yicha quyidagi amaliyotni o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga, pedagogik mahoratini oshirishga dissertatsiya ishini tayyorlashga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya:**

– sport psixologi;

– tadqiqotchi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyati mutaxassisi.

**2.3.2. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1560	52
Tanlov fanlar	240	8
Ilmiy faoliyat	1800	60

**2.3.3. 70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1560</b>	<b>52</b>	
1.01	382ITME2301	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	382SPIT2302	Sportda ilmiy tadqiqotlar	120	4	1
1.03	382PSTR2303	Psixologiyada tadqiqotlarni rejalashtirish	180	6	1
1.04	382SMST2304	Sportda matematik-statistik tahlil (1-qism)	120	4	1
1.05	382SMST2305	Sportda matematik-statistik tahlil (2-qism)	120	4	2
1.06	382SPTE2306	Sportda psixotexnologiyalar (1-qism)	120	4	1
1.07	382SPTE2307	Sportda psixotexnologiyalar (2-qism)	120	4	2
1.08	382PSPT2308	Paralimpiya sportida psixologik tayyorgarlik	180	6	2
1.09	382SPTA23093	Sportchini psixologik tayyorlash	120	4	2
1.10	382SPME2310	Sport psixologiyasi metodologiyasi (1-qism)	120	4	2
1.11	382SPME2311	Sport psixologiyasi metodologiyasi (2-qism)	120	4	3
1.12	382MFOM2312	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>240</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar (2 ta fan)</i>	240	8	3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	382ITMI2301	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash	1110	37	1,2,3,4
	382IPEI2302	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1,2,3
	382IAML2303	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	450	15	4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



OKS 01.040.01

---

Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralash tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari, xavfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubi yoki tashkilotiga psixologik yordam, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti



Rektor

M. Boltabayev

2023-yil «

»

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor

Sh. Yakubov

2023-yil « 21 » 08



O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati  
va sport vazirligi

Vazir o'rinbosari

D. Raximova

2023-yil «

»



O'zbekiston Milliy Olimpiya

Qo'mitasi

Bosh kotib

O. Kasimov

2023-yil «

»



Respublika Olimpiya va paralimpiya  
sport turlariga tayyorlash markazi

Direktor

A. Mamadaliyev

2023-yil «

»



**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**  
**70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv**  
**rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar**  
**iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Chirchiq sh.

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o‘rinbosari D. Raximova, O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi bosh kotibi O. Kasimov, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori A. Mamadaliyev va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori M. Boltabayev birgalikda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik::

70310901 – Psixologiya (sport) magistratura mutaxassisligi malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020- o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o‘rinbosari**

**D. Raximova**

**O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi bosh kotibi**

**O. Kasimov**

**Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori**

**A. Mamadaliyev**

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori**

**M. Boltabayev**